

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI CHUQURLASHTIRILGAN TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZILMOQDA



Davlat fuqarolik xizmatchilari chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilmoqda

Salomatlik - tuman boylik. Aytish lozimki, aholi salomatligini saqlash va uni himoya qilishda Respublikamizda tizimli ishlar olib borilmoqda va bunga davlat fuqarolik xizmatchilarni har yili chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish ham misol bo'la oladi.

Tuman cog'liqni saqlash bo'limi bilan hamkorlikda tumandagi barcha bo'lim va tashkilotlar hamda tuman hokimligida faoliyat yuritayotgan davlat xizmatchilarini bugundan tibbiy ko'rikdan o'tkazish tadbirlari boshlandi. Bugun tuman markaziy poliklinikasida So'x tumani hokimligi apparat xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish jarayoni bo'lib o'tdi.

Oylik davomida davlat xizmatchilarini 10 dan ortiq birlamchi turdagi tibbiy ko'rikdan o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, kasallik aniqlangan xodimlarga davolanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Tumanimizda tashkil etilayotgan tibbiy ko'rik jarayonlari davomida tumanda faoliyat olib borayotgan barcha davlat xizmatchilarini ko'rikdan o'tkazish rejalashtirilgan.

Eslatib o'tamiz, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" gi qonunda davlat fuqarolik xizmatchisiga tibbiy xizmat ko'rsatish kafolatlangan.









[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-28 16:15:59